



XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI QARORI

2022 - yil 29 - noyabr

VI-58-158-11-161-K/22

O'zbekiston tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda joriy yilning o'tgan 10 oyligida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi doirasida tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosari

X. Alijonovning hisoboti to'g'risida.

Tumanda xizmat ko'rsatish hajmi 417,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 114,6 foiz o'sish sur'ati qayd etildi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1,7 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,5 foizga oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-sonli qarorga muvofiq tumanda joriy yilda 377 ta yangi xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etish belgilangan bo'lib, joriy yil 1 noyabr holatiga 276 ta (*73,0 foiz*) yangi obyektlar ishga tushirildi va 445 ta yangi ish o'rinnlari yaratilgan.

Jumladan, tibbiyat yo'nalishida 8 ta, ta'lim yo'nalishida 7 ta, qishloq xo'jaligi sohasida 3 ta, chakana savdoda 131 ta, umumiyo ovqatlanishda 18 ta, maishiy xizmatda 38 ta, boshqa yo'nalishlarda 71 ta obyektlar tashkil etilgan.

Yil yakuniga qadar yana 101 ta xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida hokim yordamchilari yordamida hududlardagi yangi tashkil etilgan obyektlarni xatlovdan o'tkazib, dalolatnomalarini tasdiqlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yiladi. Bundan buyon yil yakuniga qadar qo'shimcha kunlik xatlov ishlarini amalga oshirish va aniqlangan obyektlarni dalolatnomalarini shakllantirish bo'yicha vazifalar belgilanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-sonli qarorning 8-bandiga asosan tumanning markaziy Turkiston ko'chasini ko'ngilochar, gastronomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ixtisoslashgan mahsus savdo va ko'ngilochar ko'chalarga aylantirish doirasida 48 ta savdo va servis obyektlari ishga tushirilib, 112 ta yangi ish o'rinnlarini yaratish belgilangan. Joriy yil 1 noyabr holatiga 48 ta xizmat obyektlari tashkil etilib, 92 ta yangi ish o'rinnlarini yaratilgan.

Hokim yordamchilari xatlovi natijasida markaziy ko'chada ham 1 ta xizmat obyektlari aniqlanib, ro`yxatga kiritildi.

Ko'chma savdo faoliyatini amalga oshirish uchun 100 ta yer maydonlarini auksionga chiqarish va tadbirkorlarga sotish belgilangan. Joriy yil yanvar-oktyabr yakuni bilan 112 ta yer maydonlari auksionlarga chiqarilib, 8 tasida g'oliblar aniqlangan.

Shuningdek, "K-savdo"ga chiqarilgan 100 ta yer maydonlari tumanning "Mingtut" MFY va "Yakkatut" MFY hududidagi katta yo'l bo'yidagi yer maydoni tanlangan. Auksionda ishtirok etish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi shart qilib belgilanganligi sababli jismoniy shaxslar qatnasha olmayapti. Shuning uchun hozirgi kunda atiga 8 ta lotlar sotilgan. G'olibaniqlanmagan yer maydonlarida tadbirkorlarni jal qilish ishlari olib borilmoqda.

Davlat tashkilotlari, shu jumladan ijtimoiy soha muassasalari binolarning birinchi va yuqori qavatlarida umumiy ovqatlanish, savdo va servis obyektlarini tashkil etish bo'yicha 2 ta (pochta binosi hamda xalq ta'limi bo'limi binosida) 63,9 kv.m bo'lgan bo'sh turgan bino inshoatida xizmat obyektlari tashkil etilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida tumanda 237 ta (36,5 ga.) yer maydonini auksion savdolari orqali tadbirkorlarga sotish belgilangan. 2022 yil 1 oktabr kuniga qadar 118 ta (24,02 ga.) yer maydonlari auksion savdolariga chiqarilgan. Ushbu yer maydonlaridan 8 ta (1.45 ga.) yer maydonlari sotilgan xolos. Bu ham asosan yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Tuman hokimining birinchi o'rribbosari va qurilish bo'limi boshlig'i va tuman kadastr agentligi mutahassisini bilan yil yakuniga qadar auksionga chiqarilgan barcha yerlarni tadbirkorga sotish va ushbu yer maydonlarida xizmat obyektlarini tashkil etish choralarini belgilab olindi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha manzilli ishlari tashkil etilgan bo'lib yil yakuni bilan belgilangan vazifalar to'liq bajariladi.

O'zbekiston tumanida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlari to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rribbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i X. Alijonovning bergen hisobotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari O'zbekiston tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan 55-sон majlisi bayonida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlari natijadorligi hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirish" bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda joriy yilning o'tgan 10 oyligida xizmatlar sohasini rivojlantirish

dasturi doirasida tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rnbosari X. Alijonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rnbosari (X. Alijonov), tuman mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi boshlig'i (R.To'ychiyev) hamda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining yordamchilari (keyingi o'rnlarda-hokim yordamchilari) tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishda quydagilarga alohida e'tibor qaratishlari belgilab qo'yilsin.

Jumladan:

har bir mahallalarda aholining zaruriy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun ajratilayotgan kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishga;

har bir mahallalar aholi soni, ixtisoslashuvi va drayveridan kelib chiqib rivojlanishiga;

aholining yashash sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq barcha dolzarb masalalarni va ularni hal etish uchun talab etiladigan mablag'lar hajmini aniqlash, shuningdek, ushbu masalalarni Dastur doirasida imkon darajasida to'liq qamrab olishni ta'minlasin.

4. Davlat kadastr palatosi tuman filiali (M.Baxritdinov), tuman qurilish bo'limi (R.Xasanov) bilan birgalikda:

har oyda mahallalardagi bo'sh yer uchastkalarini tadbirkorlik subektlariga ko'chma va yengil konstuksiyali hamda xizmat ko'rsatish obektlarini barpo etish uchun elektron-auksion savdolariga joylashtirib borilishini ta'minlasin.

5. Davlat kadastr agentligi tuman filiali (A.Rajabov) bilan birgalikda elektron-auksion savdolariga chiqarilgan yer uchastkalari hamda bino-inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik holatlarini aniqlash, yer uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga va chegaralarini o'zboshimchalik bilan o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, yerdan maqsadli foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirsin va oyma-oy monitoring qilib borilsin.

6. Tuman hokimining birinchi o'rnbosari (X.Alijonov), tuman hokimining investitsiya va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rnbosari (O.Qurbanov) tumanda mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (R.To'ychiyev) tumandagi aloqador tashkilotlar bilan birgalikda xizmatlar Dasturi doirasida hududiy investitsiya loyihalari va yo'l bo'yida xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil etish bo'yicha amalaga oshirilayotgan loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirilishini ta'minlash borasida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqsin.

7. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (U.Fozilov), tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi (B.Oxunov) hamda tumanda mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (R.To'ychiyev) larga:

2022-yilga mo'ljallangan xizmatlar dasturidagi tegishli bandlar ijrosini oyma-oy, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirish;

norasmiy faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatuvchi subektlarni legallashtirish, hududlarda o'zini-o'zi band qilgan fuqarolar sonini ko'paytirish;

mahallalarda yengil konstruksiyali shahobchalar tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagи "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 485-sonli qarori ijrosi doirasida "K-savdo" (ko'chma savdo) avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilgan hududlarda ko'chma savdo faoliyatini tadbirkorlik subektlari tomonidan tashkil etishda va har bir mahallada 21 turdagi zaruriy xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil etish bo'yicha tashabbuskor tadbirkorlarni aniqlab, loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish chorasini ko'rsinlar.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari O'zbekiston tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Azimov) hamda tuman hokimining birinchi o'rinosi X.Alijonovlar zimmalariga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi v.v.b



N.Eshmatov